


O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGI



Navoiy shahar 4-DMTT musiqa raxbarlari
Xo'jamqulova Dilafro'z SHamsiddinovna
Iskandarova Dilnoza To'lqin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligining shakllanish va rivojlani jarayonlari va bosqichlari ilmiy tadqiq etilib, bugungi kunda musiqa yo'naliqidagi o'zbek xalq cholg'ularini o'rni to'g'risida asosli dalillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: cholg'u, musiqa, ovoz, xarakat, istedod, takomillashtirish, temp, mahorat.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki 1928 yili Samarqand shahridagi musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot institutida milliy cholg'ularni yasash uslublari, mahoratlari, tembrlari, tovush qatorlari, diapazonlari, ijrochilik texnik imkoniyatlar va boshqa ko'rsatkichlari atroficha ilmiy asosda o'rganila boshlangan edi. V.A.Uspenskiy, N.N.Mironovlar boshchiligidagi bir guruh soha mutaxassislari, sozandalar shuningdek milliy cholg'ular ustalari bu ishga jalgan qilingandilar. Guruhga keyinchalik taklif etilgan A.I.Petrosyans o'n ikki qatorli bir xil temperatsiya asosida o'zbek milliy cholg'ularini rekonstruksiya qilish guruhiга rahbarlik qila boshlaydi. U rus xalq cholg'ulari orkestrining tashkilotchisi (birinchi orkestr 1888 yili faoliyatini boshlagan) V.Andreev g'oyalari va tajribasiga tayangan holda o'z izlanishlarini olib bordi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

1936 yili o'zbek davlat filarmoniyasiga asos solinib, ko'plab tuzilinayotgan badiiy jamoalar qatori, 98 kishilik katta ashula va raqs ansambli ham, san'at ustasi, bastakor keyinchalik O'zbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilov rahbarligida o'z faoliyatini boshlaydi. Taniqli pianinochi A.I.Podgorniy va yosh kompozitor, keyinchalik O'zbekiston xalq artisti, mustaqil diyormiz madhiyasining mualliflaridan biri (so'zi O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov qalamiga mansub) Mutal Burhonovlar filarmoniya badiiy jamoalari artistlariga musiqa nazariyasidan dars bera boshlashadi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

1948 yilda Toshkent konservatoriyasida xalq cholg'ulari fakultetining tashkil etilishi hamda bastakor va kompozitorlarning ommaviy musiqa janrlariga murojaat qilishlari orkestrning ijodiy kamolatida muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada milliy dasturga asos solindi, tinglovchilarning tahsinlariga sazovor asarlar yaratildi. Oradan bir yil o'tgach, 1949 yil noyabrida kompozitorlarning III anjumanidan ishiga jalgan etildi. Orkestrning anjuman konsertlaridagi chiqishlari katta muvaffaqiyat qozondi [3].

Orkestr 1951 yil noyabrida o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasи qatnashchilarи safida Moskvada konsertlar berish sharafiga muyassar bo‘ldi. Shundan so‘ng u Ukraina, Latviya, Litva, Estoniya, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya kabi davlatlarda Rossiyaning Sankt-Peterburg, Kaluga, Murmansk, Qozon va boshqa shaharlarida o‘zbek milliy musiqa san’atini, kompozitorlar asarlarini tashviqot qildi. 1957 yilda orkestrning yoshlar tarkibi xalq cholg‘ulari orkestrlarning Xalqaro tanlovida muvaffaqiyatla qatnashib, Oltinmedal sohibi va laureat bo‘lishdi.

1966 yili orkestrga O‘zbekiston xalq artisti, taniqli ustoz san’atkor To‘xtasin Jalilov nomi berildi. Orkestr dasturining boyishi va ijrochilik mahoratining oshishida unga dirijorlik qilgan L.Sultonova, X.Izomov, A.Liviev, N.Alimov, A.Bahromov, S.Karimov, S.Jalil, F.Nazarovlar shuningdek 1958 yildan orkestr jamoasining badiiy rahbari va bosh dirijori vazifasini bajargan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Said Aliev va boshqalarning munosib hissalari bor. 1976 yildan beri orkestrga O‘zbekiston xalq artisti, professor Faruq Sodiqov badiiy rahbar va bosh dirijorlik qilib kelmoqda. Shu davr mobaynida Foruq Tojievichga dirijor sifatida uning shogirdi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abduvohid Muborakov yordam beradi. O‘zbek xalq kuy va qo‘schiqlari, mumtoz durdonalarimiz, jahon klassik va o‘zbek kompozitorlari asarlari alohidao‘rin tutadi. Jamoa ijrochilikda erishgan yutuqlari uchun 1980 yilda «Davlat orkestri», 1991 yilda Respublikada yagona «Akademik orkestr» unvoniga sazovor bo‘ldi [4].

1960 yili O‘zbekiston radiosи qoshida maqomchilar ansamblи faoliyat boshladi. Yangi jamoaga Yu.Rajabiy boshchilik qila boshladi. Orkestr Badiiy rahbarlik lavozimiga D.Zokirov lozim topildi. To 80-yillarning boshlarigacha Doni aka ikki lavozimda ish olib bordilar. Orkestrning ijrochilik yo‘lini shakillantirishda, dasturni boyitishda O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Dona Zokirovning xizmatlari beqiyosdir.

Bugungi kunda jamoaning bosh dirijor va badiy rahbari sifatida taniqli sozanda, pedagog, yaxshi tashkilotchi, madaniyat sohasida ko‘p yillar davomida rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borib xurmat qozongan Hikmat Rajabov orkestrdagi yaxshi an’analarni davom etirgan holda boshqarmoqda.

2014-yilning oktabr oyida ikki professional jamoalar negizida yagonao‘zbek xal cholg‘ulari Davlat Akademik orkestri tashkil etildi va bu jamoaga D.Mutalov raxbar etib tayinlandi.

Shu kundan boshlab jamoaning xayotida to‘rtinchи davr boshlandi xamda o‘zgarishlar tomon katta qadam qo‘yildi. Dirijor D. Mutalov dastlabki ijodiy faoliyatini “Sug‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari davlat kamer orkestrida chang sozida ijrochi sifatida boshladi. D.Mutalov bu jamoada tashkil topgandan boshlab 2010-yilgacha chang sozi ijrochisi va orkestr konsertmeystri lavozimlarida faoliyat olib bordi. Ayni paytda, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida xam pedagog sifatida

dirijorlik sinfida ustozlik qiladi. Xalq cholg‘ularining xususiyatini yaxshi bilganligi, ijodiy tajribasibu jamoada raxbarlik qilishida juda ko‘l keldi. O‘zidan avvalgi ustoz dirijorlarning ishlarini davom ettirgan xolda, yutuq va kamchiliklardan kerakli xulosalar chiqarib, xozirgi kungacha o‘z faoliyatini olib bormoqda.

2019-yilning 25-aprelida Xalq cholg‘ulari okestrining 80-yilligi munosabati bilan munosib ravishda katta konsert o‘tkazildi va bu konsertda qo‘shti mamalakatdan xam vakillar ishtirok etdilar.

Ushbu orkestr ko‘plab ko‘rinishlarda konsertlar beradi xamda yurtimizning turli viloyatlarida ijodiy safarlarda bo‘ladi. Agar ularni birma-bir sanasak oxiriga yetishimiz qiyin.

XULOSA VA MUNOZARA

Mustaqillik davrida yurtimizda musiqa san’atini keng rivojlanishiga yo‘naltirilgan dastur va rejalar amalga oshmoqda, nufuzli xalqaro hamda respublika anjumanlari, tanlovlardan muntazam o‘tayotgani, mumtoz musiqiy merosimizni yosh avlodlarga bezavol yetkazib berish maqsadida amalga oshirilayotgan qator tadbirlar quvonarlidir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelagagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.
2. Akbarov I.A. "Musika lugati". G’ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2017 yil.
3. Azimov K. O‘zbek xalq cholg‘ulari havaskorlar orkestri bilan ishslash uslublari. T. 2018 yil.
4. www.ziyonet.uz